

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro davlat universiteti
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası**

**“O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI”**

**Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2025 yil, 14-15 aprel

1

Buxoro – 2025

Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT PRACTICES: REGIONAL PERSPECTIVES.....	432
To'rayev Shohrux KORXONA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING YASHIL MEXANIZMI.....	437
Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi. SUN'İY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH: XALQARO VA MILLIY AMALIYOTLAR HAMDA ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR.....	440
Xolmo'minov Xumoyun Odil o'g'li. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning xalqaro va milliy maqsadlariga erishishda logistik xizmatlarni takomillashtirish yo'nalishlari.....	446
Yoriyeva Dilafo'z Oltinova. Buxoro viloyatini barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil qilish va raqobatbardoshligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	449
Ғафуров Олимжон Ғолиб ўғли. VALYUTA SIYOSATI USULLARI VA QARAMA-QARSHILIKLARI.....	456
Даврон Кесимов. ХУСУСИЙ ТИББИЁТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА АҲАМИЯТИ.....	460
Qudratov Alisher Alijanovich, Bo'riboyev Qobil G'ayrat o'g'li. Korxonalarda texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash hisobidan mahsulot tannarxini pasaytirishning moliyaviy masalalari.....	465
Зафар Мирзаев. Саноат корхоналарида иктисодий ўсишни таъминлаш.....	467
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Nuriddinova Gulsanam Bahridin qizi. O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadida kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga zamonaviy yondashuvlar.....	470
Ходжаева Дилбар Хуршидовна, КОНЦЕПЦИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	475
Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli Anvarkhonov. UZBEKISTAN'S PLACE IN THE INTERNATIONAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS RATING AND WAYS TO IMPROVE IT	478
Malikova Shoiray Baxtiyorovna XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA SIYOSATI VA JALB QILISH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	484
Anvarova Zarrina Saidovna, Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida sug'urta tizimiga innovatsion yondashuv.....	489
Xudoyqulov Husen Ahadovich, BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA ULARNING RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASI YO'NALISHLARI.....	492
Il sho'ba. Ekologiya va biologik xilma-xillikni asrashning ustuvor yo'nalsilari.....	498
Hamrayev Diyorjon Xonnazar o'g'li, Esanov Husniddin Qurbonovich. OQTOG' BOTANIK GEOGRAFIK RAYONI FLORASIDAGI YUKSAK O'SIMLIK LARINING O'RGANILGANLIK HOLATI.....	498
Qoriyev Mirzoxid Rustamjonovich, Solijonova Marhaboxon Sanjarbek qizi. ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA YER YUZASIDAN BUTUNLAY YO'Q BO'LIB KETGAN QUSH TURLARI.....	501
Saydaliyev Ismoiljon Nurmatovich. EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASHDA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	507
Allamurotov Akmal Lola o'g'li, Abduraimov Ozodbek Sultankulovich, Maxmudov Azizbek Valijonovich, Mavlanov Bekzod Jo'rabekovich. FERULA VARIA (SCHRENK) TRAUTV. NING GULLASH BIOLOGIYASI VA URUG' MAHSULDORLIGI.....	510
E.E.Isomov1, G.R.Djumayeva1, J.N.Mahammadiyev. ARTISHOK NAVLARINING O'SISH SHAROITIGA KO'RA QIYOSIY TAHLILI (ONTOGENEZ).....	514
Kadirova Maraljan Matyakubovna, Xikmatilloev Mirjon Xamidjonovich. OB-HAVO IFLOSLANISHINING ATROF – MUHITGA TA'SIRI.....	521
Masharipov Adamboy Atanazarovich, Atanazarov Suxrob Kadamovich. ATROF MUHIT MUHOFAZASIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AHAMIYATI.....	527

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 9 сентябрдаги «Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чоратадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4821-сон қарори.

3. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс. док. экон. наук. – Т.: 2004. – 291 с.;

4. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс д.э.н. - Т.: 1992.

Narzullayeva Gulchehra Salimovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasida katta

o‘qituvchisi

Nuriddinova Gulsanam Bahriddin qizi

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB QUVVATLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadida kichik va o‘rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga zamonaviy yondashuvlar iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish hamda innovatsiyalarni joriy qilish orqali bu biznes turlarining barqarorligini ta‘minlash yo‘llari, kichik va o‘rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga zamonaviy yondashuvlarda Evropa davlatlari tajribasidan foydalanish hamda undan O‘zbekistonda qo‘llash yo‘llariga oid tahliliy ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz zanjiri, kichik va o‘rta biznes subyektlari, zamonaviy yondashuvlar, ijtimoiy korxonalar, mahalliy jamiyatlar, soliq ta‘illari, instrument, bozor tadqiqotlari.

Аннотация. В данной статье освещены современные подходы к государственной поддержке субъектов малого и среднего бизнеса, пути обеспечения устойчивости этих видов бизнеса путём стимулирования экономического развития и внедрения инноваций, использование опыта европейских стран в современных подходах к государственной поддержке субъектов малого и среднего бизнеса, а также аналитические данные о способах их применения в Узбекистане.

Ключевые слова: непрерывная цепочка, субъекты малого и среднего бизнеса, современные подходы, социальные предприятия, местные сообщества, налоговые каникулы, инструменты, исследования рынка.

Annotation. This article highlights modern approaches to state support for small and medium-sized businesses, ways to ensure the sustainability of these types of businesses by stimulating economic development and innovation, the use of experience of European countries in modern approaches to state support for small and medium-sized businesses, as well as analytical data on the ways of their application in Uzbekistan.

Keywords: continuous chain, SMEs, modern approaches, social enterprises, local communities, tax vacations, tools, market research.

Kirish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo‘llab-quvvatlashning “uzluksiz zanjirini” yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi bo‘g‘ini bo‘lgan o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash instrumentlari yetarlicha yaratilmasdan qolmoqda. Moliya bozorida resurslarning yuqori foiz

stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda.

Biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining (keyingi o'rinlarda — jamg'arma) amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik subyektlariga yetarlicha yordam ko'rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish, xalqaro moliya institutlaridan to'g'ridan-to'g'ri mablag' jalb etish imkoniyatini bermaydi.²⁹⁰

Adabiyotlar sharhi.

Mahalliy olimlarning ilmiy-amaliy qarashlariga misol qilib, iqtisodchi olimlarimizdan A.Axmedov va M.Xolbo'tayevlarning fikrlarini ko'rsatib berish mumkin. A. Ahmedov o'z ilmiy-amaliy qarashlarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda davlatning strategik rejalashtirish rolini kuchaytirish, soliq yengilliklarini kengaytirish va biznes-inkubatorlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi. M. Xolbo'taev ham o'z ilmiy-amaliy qarashlarida kichik va o'rta biznesni innovatsiyalarni joriy qilish va eksport salohiyatini oshirish orqali rivojlantirish zarurligini aytadi. U davlat tomonidan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozimligini ta'kidlaydi.

Mavzuga doir xorijiy olimlarning ilmiy-amaliy qarashlari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat. Michael E. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, kichik va o'rta biznes uchun davlat qo'llab-quvvatlovi mahalliy klasterlarni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va malakali ishchi kuchini ta'minlash orqali amalga oshirilishi kerak deb hisoblangan. David Storey ham kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli va strategiyalari haqida tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, kichik biznes uchun davlat siyosati qulay biznes muhitini yaratishga, byurokratik to'siqlarni kamaytirishga va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xitoylik iqtisodchi olim Donghyun Kim va Up Lim ijtimoiy korxonalar va mahalliy jamiyatlarni rivojlantirishda kichik va o'rta biznesning roli haqida tadqiqot olib borgan. Ular davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhimligini ta'kidlaydi. Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy yondashuvlar va ilmiy-amaliy qarashlar turli xil iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlarni qamrab oladi. Mahalliy va xorijiy olimlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun davlatning roli va strategiyalariga alohida e'tibor qaratishadi, ularning ilmiy qarashlari esa amaliyotda samarali qo'llanilishi mumkin.

Asosiy qism.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga zamonaviy yondashuvlar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va innovatsiyalarni joriy qilish orqali bu biznes turlarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Ilmiy tadqiqot jarayonida zamonaviy yondashuvlarning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz.

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Ularga grantlar va subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, investitsiyalarni rag'batlantirish kabi asosiy richaglar misol bo'ladi. Bu jarayonda davlat tomonida innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun grantlar ajratish, yangi bizneslarni boshlash va kengaytirish uchun subsidiyalar berish, kichik va o'rta bizneslar uchun past foizli yoki foizsiz kreditlar taqdim etish, kredit olish jarayonini soddalashtirish va tezkorlashtirish, xususi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va yengilliklar taqdim etish mumkin.

2. Soliq imtiyozlari va yengilliklar. Ularga soliq ta'tillari berish va soliq yengilliklarini joriy etish mumkin. Davlat tomonida yangi tashkil etilgan korxonalarga soliq ta'tillari berish, va faoliyatini kengaytirayotgan bizneslar uchun soliq yengilliklarini taqdim etish, kichik va o'rta

²⁹⁰ <https://lex.uz/docs/-6658633>

bizneslar uchun soliq stavkalarini kamaytirish va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun maxsus soliq rejimlari yaratish lozim deb hisoblaymiz.

3. Ta'lim va maslahat yordami. Biznesni boshqarish kurslarini tashkil etish va konsalting xizmatlarini ko'rsatish davlat tomonidan alohida yuritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. kichik va o'rta biznes rahbarlari uchun menejment va tadbirkorlik bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish, biznesni rivojlantirish va boshqarish bo'yicha professional maslahat xizmatlarini taqdim etish hamda yuridik va moliyaviy masalalar bo'yicha ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

4. Infratuzilma va logistika qo'llab-quvvatlovi. Bu jarayonda davlat tomonidan texnoparklar va biznes inkubatorlar hamda logistika markazlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Innovatsion g'oyalarni rivojlantirish uchun texnoparklar va biznes inkubatorlar yaratish, startaplar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash, mahalliy va xalqaro bozorga chiqishda logistik xizmatlar va markazlarni rivojlantirish hamda transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Raqamli transformatsiya. Davlat tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy qilish va elektron hukumat tizimlarini raqamlashtirish jarayoniga "O'zbekiston-2030" strategiyasida alohida e'tibor qaratilgan. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli platformalarni rivojlantirish, elektron tijorat va onlayn savdo platformalarini qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta bizneslar uchun elektron xizmatlarni kengaytirish hamda davlat xizmatlarini onlayn ko'rinishda taqdim etish orqali jarayonlarni soddalashtirish "O'zbekiston-2030" strategiyasida aniq maqsadlar qilib ko'rsatilgan.

6. Innovatsiyalarni rag'batlantirish. Davlat tomonidan innovatsion dasturlarni amalga oshirish hamda tadqiqotlarni o'rkazish kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish, texnologik rivojlanishni rag'batlantirish uchun davlat grantlarini taqdim etish, kichik va o'rta bizneslarni ilmiy-tadqiqot va rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda universitetlar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirish lozim.

7. Mahalliy va xalqaro bozorlarni rivojlantirish. Bu jarayonda davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash va bozor tadqiqotlarini o'tkazish kerak. Buning uchun kichik va o'rta bizneslar uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro bozorlar uchun maxsus dasturlar va ko'maklashish xizmatlarini taqdim etish, kichik va o'rta bizneslar uchun bozor tadqiqotlari va tahlillarini o'tkazish, mahalliy va xalqaro bozorlar haqida ma'lumotlarni taqdim etish kerak deb hisoblaymiz.

Ushbu zamonaviy yondashuvlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Davlat tomonidan taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari bu biznes subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratadi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga zamonaviy yondashuvlarda Evropa davlatlari tajribasidan foydalanish ko'plab samarali chora-tadbirlarni joriy qilish imkonini beradi.

1-jadval

Kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda Evropa tajribasi

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilish			
Grantlar va subsidiya dasturlari		Imtiyozli kreditlar	
Evropa Ittifoqi (EU) tajribasi	EU tomonidan kichik va o'rta bizneslar uchun ko'plab grant va subsidiya dastur-lari amalga oshiriladi, masa-lan,	Germaniya tajribasi	KfW banki orqali kichik va o'rta bizneslar uchun imtiyozli kreditlar taqdim etiladi.

	"Horizon 2020" innovate-sion dasturi		
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda kichik va o'rta biznes uchun grant va subsidiya dasturlarini yaratish, davlat va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.	Foydalanish yo'li	Davlat va xususiy banklar orqali kichik va o'rta bizneslarga past foizli kreditlar taqdim etish, imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish.
Solliq imtiyozlari va yengilliklar tizimini rivojlantirish			
Solliq yengilliklari		Solliq ta'tillari	
Buyuk Britaniya tajribasi	Innovatsion va tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta bizneslar uchun solliq yengilliklari taqdim etiladi	Fransiya tajribasi	Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun solliq ta'tillari berish orqali ularni qo'llab-quvvatlash
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun solliq yengilliklarini taqdim etish, yangi ish o'rinlari yaratgan korxonalar uchun solliq imtiyozlari joriy qilish.	Foydalanish yo'li	Yangi tashkil etilgan kichik va o'rta bizneslar uchun birinchi yillarda solliq ta'tillari taqdim etish
Ta'lim va maslahat xizmatlarini takomillashtirish			
Biznesni boshqarish kurslari		Konsalting xizmatlari	
Shvetsiya tajribasi	Biznes inkubatorlari va akselerator dasturlari orqali tadbirkorlarga menejment va biznes boshqaruvi bo'yicha treninglar o'tkaziladi	Niderlandiya tajribasi	Kichik va o'rta bizneslar uchun davlat tomonidan subsidiya-lanadigan konsalting xizmatlari
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda kichik va o'rta biznes rahbarlari uchun biznesni boshqarish kurslari va trening dasturlarini tashkil etish, universitetlar va tadbirkorlik markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.	Foydalanish yo'li	O'zbekistonda konsalting xizmatlarini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikda maslahat xizmatlari taqdim etish
Infratuzilma va logistika qo'llab-quvvatlovi			
Texnoparklar va biznes inkubatorlar		Logistika markazlari	
Finlyandiya tajribasi	Tekes agentligi orqali innovatsion startaplar va texnoparklarni qo'llab-quvvatlash.	Italiya tajribasi	Logistika va transport markazlarini rivojlantirish orqali kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda texnoparklar va biznes inkubatorlar yaratish, innovatsion g'oyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish	Foydalanish yo'li	O'zbekistonda logistika markazlarini rivojlantirish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash
Raqqamli transformatsiya va innovatsiyalarni rag'batlantirish			
Raqqamli texnologiyalarni joriy qilish		Innovatsion dasturlar	

Estoniya tajribasi	E-Estonia tashabbusi orqali raqamli hukumat tizimlari va elektron xizmatlar joriy etilgan	Daniya tajribasi	Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali maxsus dasturlar
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, kichik va o'rta bizneslar uchun elektron xizmatlarni kengaytirish	Foydalanish yo'li	Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta bizneslar uchun davlat grantlarini taqdim etish, tadqiqot va rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash.
Mahalliy va xalqaro bozorlarni rivojlantirish			
Eksportni qo'llab-quvvatlash		Bozor tadqiqotlari	
Ispaniya tajribasi	ICEX eksport va investitsiyalar agentligi orqali kichik va o'rta bizneslar uchun eksportni rag'batlantirish dasturlari	Gollandiya tajribasi	Bozor tadqiqotlari va tahlillarini o'tkazish orqali kichik va o'rta bizneslarni bozor talablari bilan tanishtirish
Foydalanish yo'li	O'zbekistonda kichik va o'rta bizneslar uchun eksportni rag'batlantirish dasturlarini joriy etish, xalqaro bozorlar haqida ma'lumot va ko'mak xizmatlari taqdim etish	Foydalanish yo'li	O'zbekistonda kichik va o'rta bizneslar uchun bozor tadqiqotlari va tahlillarini o'tkazish, mahalliy va xalqaro bozorlar haqida ma'lumot berish

Evropa davlatlarining kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tajribasi O'zbekiston uchun ko'plab foydali yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali kichik va o'rta bizneslarning rivojlanishini rag'batlantirish va ularning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini oshirish mumkin. Evropa davlatlarining kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tajribasi O'zbekiston uchun ko'plab foydali yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali kichik va o'rta bizneslarning rivojlanishini rag'batlantirish va ularning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini oshirish mumkin. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tajriba va innovatsiyalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari oshadi.

Xulosa.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilsa, bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil bo'ladi. Evropa davlatlari tajribasidan foydalanish orqali bu yondashuvlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda xalqaro tajriba va innovatsiyalarni joriy qilish kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Narzullayeva G. S., Sh O. S. Theoretical aspects of assessment of marketing communications //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.
2. Nematilloevna K. N., Salimovna N. G., Muxammedovna T. M. Genesis of the Essential Content of the Hotel Service as an Object of Consumer-Oriented Marketing //International

Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2021. – Т. 3. – №. 12. – С. 61-69.

3. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

4. Bayazovna G. N. Marketing communication strategy and its essence //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 1 (85). – С. 18-21.

5. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Narzullayeva G., Dehkonov B. The opportunities of development foreign economic activity in Bukhara region //Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26]. – 2015. – Т. 1. – С. 26-28.

7. Narzullayeva G. Theoretical and methodological basis of attracting foreign investment to the national economy //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 2540-2544.

8. Gulchehra N. Creative Management: Creative Opportunities In Business Process Management //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.

9. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

10. Gulchehra N. TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.

11. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.

Ходжаева Дилбар Хуршидовна,
кафедра Менеджмент и маркетинг,

Бухарский Государственный университет

КОНЦЕПЦИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальность и необходимость следованию концепции устойчивого развития через парадигму экологические проблемы и экономический рост. Также особое внимание уделено принципам устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: природопользование, концепция устойчивого развития, экономика, экология, экологическое воспитание, экологическая техноёмкость, природоёмкость экономики.

Концепция устойчивого развития – это не только сохранение окружающей среды, но и особенности развития экономической и социальной сферы, поддержания их функционирования, обеспечение определенного уровня жизни и ее качества.²⁹¹ Исходя из этого, охрана окружающей среды является всего лишь одним из направлений, в рамках которого может быть реализована концепция устойчивого развития.

²⁹¹ А.П.Анисимов, «О некоторых проблемах реализации концепции устойчивого развития (на примере ООПТ)». Материалы Республиканского круглого стола «Приоритетные направления развития экологического, земельного и аграрного права». Минск : Изд. центр БГУ, 2017. – 255 с